Tanlov mazmuni: Quyida sanab o‘tilgan kompyuter va orgtexnikani xarid qilish.

t.r.	Nomlanishi	Miqdori
1	Idora ishlari uchun shaxsiy kompyuter (klaviatura, sichqoncha, 19'' monitor, muttasil ta’minlash bloki (UPS))	4
2	Idora ishlari uchun shaxsiy kompyuter (klaviatura, sichqoncha, 24'' monitor, muttasil ta’minlash bloki (UPS))	2
3	A-4 hajmdagi nurli printer	2
4	A-4 hajmdagi ko‘p tarmoqli qurilma (printer, skaner, nusxa ko‘chirgich)	1

To‘lov shartlari: shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 bank kuni davomida shartnoma summasidan 15% o‘tkaziladi, oxirgi hisob-kitob 85% - yetkazib berilgan sanadan boshlab 30 bank kuni davomida.

Tanlov takliflarida har bir mahsulot bo‘yicha alohida qiymat, texnikaviy xususiyatlar, yetkazib berish shartlari va muddati, kafolat majburiyatlari ko‘rsatilishi zarur.

Tanlovda muvofiq guvohnomalar va litsenziyalarga ega bo‘lgan tashkilotlar, firmalar, ishlab chiqaruvchilar ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda qarzini to‘lay olmayotgan, faoliyati tugatilayotgan yoki qayta tuzilish bosqichidagi, belgilangan muddatlarda barcha zarur hujjatlarni taqdim eta olmagan, avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha avval qabul qilingan majburiyatlarni tegishliligicha bajara olmagan, buyurtmachilar bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida bo‘lgan tashkilotlar va firmalarning ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi.

Tanlov takliflari quyidagi manzil bo‘yicha qabul qilinadi:

O‘zbekiston - 100167, Toshkent shahri Qumariq ko‘chasi, Aeroport.

«Uzbekistan Helicopters» MChJ direktori v.v.b. A.F.Safiullinga

e-mail: helicopters@uzairways.com.

Tanlov takliflarini qabul qilish muddati: 2021-yil 29.04. soat 17.00.gacha.

Tanlov takliflari pochta, faks, electron pochta orqali qabul qilinadi.

Tanlov ishtirokchilari qo‘shimcha ma’lumotlarni +99871 2155664 (faks) telefoni orqali olishi mumkin.

Download PDF